VII. ISTE'MOL BOZORI

2023 yilning yanvar-martida chakana savdo tovar aylanmasi 1 560,5 mlrd. so'mni yoki 2022 yilning shu davriga nisbatan 103,2 foizni tashkil qildi.

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi 99,5 mlrd. so'mni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 6,4 foizni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning chakana savdo tovar aylanmasi 135,7 foizni tashkil etib, 246,2 mlrd. so'mga yetdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 15,8 foizni tashkil qildi.

Umumiy tovar aylanmasi hajmida 1 214,8 mlrd. so'm yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobiga to'g'ri keldi va o'sish sur'ati 2022 yilning shu davriga nisbatan 97,9 foizga yetdi. Jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmida ushbu sektor ulushi 77,8 foizga teng bo'ldi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, *% da*
(2023 yil yanvar-mart)



2023 yilning yanvar-martida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari bo'yicha quyidagicha ifodalanadi.

Nodavlat mulki 1560,5 mlrd. so'mni yoki o'tgan 2022 yilning shu davriga nisbatan 103,2 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 100,0 foizni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmining eng katta ulushi Jizzax shahri hisobiga to'g'ri keldi va 21,1 foizni tashkil etdi, G'allaorol tumani 11,2 foizni, Sharof Rashidov tumani 12,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, Yangiobod tumani 1,4 foiz, Zafarobod tumani 1,7 foiz va Arnasoy tumani 1,8 foiz ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

Hududlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi



2023 yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

	Chakana savdo hajmi, mlrd. so'm	*2022 yil yanvar-martiga nisbatan foiz hisobida*	*Umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida*
Jami	**1 560,5**	**103,2**	**100,0**
shu jumladan:			
yirik korxonalar	99,5	110,7	6,4
kichik tadbirkorlik	246,2	135,7	15,8
Yakka tartibdagi tadbirkorlik	756,1	96,6	48,5
Uyushmagan savdo	458,7	100,2	29,3

2023 yilning yanvar-mart oylarida viloyatning chakana tovar aylanmasi

	Jami		Aholi jon boshiga	
	Hajmi, mlrd. so‘m	2022 yil yanvar-martiga nisbatan foiz hisobida	ming so‘m	2022 yil yanvar-martiga nisbatan foiz hisobida
Jizzax viloyati	**1 560,5**	**103,2**	**1 054,9**	**101,0**
shahar:				
Jizzax	391,1	101,4	2 032,6	98,8
tumanlar:				
Arnasoy	28,1	65,1	584,0	64,2
Baxmal	148,7	111,4	890,0	109,0
G‘allaorol	174,2	104,3	950,4	102,1
Sharof Rashidov	191,4	116,7	806,3	113,7
Do‘stlik	83,2	103,0	1 205,8	101,2
Zomin	171,4	99,8	974,9	97,5
Zarbdor	100,3	101,3	1 081,1	98,9
Zafarobod	26,1	101,4	494,7	99,3
Mirzacho‘l	49,7	102,1	909,8	100,2
Paxtakor	101,6	101,6	1 277,9	99,3
Forish	72,1	102,8	742,6	101,2
Yangiobod	22,6	102,2	766,9	100,9

Viloyatda chakana tovar aylanmasida aholi jon boshiga o‘sish surati yuqori hududlar Sharof Rashidov (113,7 %), Baxmal (109,0 %) va G‘allaorol (102,1 %) tumanlariga to‘g’ri keladi.

2023 yil yanvar-mart oylarida, chakana savdo tovar aylanmasining o‘sish sur’atlari

(ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda, % da)

1. Sharof Rashidov 116,7
2. Baxmal 111,4
3. G‘allaorol 104,3
4. Do‘stlik 103,0
5. Forish 102,8
6. Yangiobod 102,2
7. Mirzacho‘l 102,1

Viloyati bo‘yicha 2023-yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **1 560,5** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **103,2** foizni tashkil etdi.

Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o‘sish sur’atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida **93,6** foizga o‘sish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va **6,4** foizga o‘sish yirik korxonalar hissasiga to‘g‘ri keldi.

Viloyatda chakana savdo tovar aylanmasi **100,0** foiz ulush bilan **1 560,5** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Viloyatning aksariyat hududlarida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’atlari kuzatildi. Xususan, yuqori o‘sish sur’atlari Sharof Rashidov (116,7 %), Baxmal (111,4 %), G‘allaorol (104,3 %), Do‘stlik (103,0 %), Forish tumanlarida (102,8 %), nisbatan yuqori bo‘lmagan o‘sish sur’atlari Zomin (99,8 %) va Arnasoy tumanlarida (65,1 %) kuzatildi.

8. Paxtakor 101,6
9. Jizzax shahar 101,4
10. Zafarobod 101,4
11. Zarbdor 101,3
12. Zomin 99,8
13. Arnasoy 65,1

2023 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o‘sish sur’ati, *% da*

Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 10,7 foizga o‘sdi va 99,5 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 6,4 foiz ulushiga to‘g‘ri keldi.

Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Eng past ulushga ega hududlar, % da

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, 1 461,0 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2,8 foizga ko‘paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 93,6 foizni tashkil etdi.

Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tumanlarning umumiy ovqatlanish korxonalari tovar aylanmasi mlrd. so‘m, o‘sish sur’ati, *% da*
(2023 yil yanvar-mart)



Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi umumiy hajmida yuqori ko‘rsatkich Jizzax shahrida (21,1 mlrd. so‘m), Zomin (10,9 mlrd. so‘m), Sharof Rashidov (7,6 mlrd so‘m) hamda Paxtakor (3,8 mlrd. so‘m) tumanlarida, eng past ko‘rsatkich esa Yangiobod (1,5 mlrd. so‘m), Mirzacho‘l (1,4 mlrd. so‘m) va Arnasoy (0,3 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

	Hajmi, mlrd. so‘m	*Jamiga nisbatan foizda*	*2022 yil yanvar-martiga nisbatan foiz hisobida*
Jizzax viloyati	**60,5**	**100,0**	**101,7**
shahar:			
Jizzax	21,1	34,9	112,5
tumanlar:			
Arnasoy	0,3	0,5	61,1
Baxmal	2,1	3,5	78,1
G‘allaorol	2,0	3,3	106,7
Sharof Rashidov	7,6	12,5	110,4
Do‘stlik	2,3	3,8	107,8
Zomin	10,9	18,0	87,1
Zarbdor	2,6	4,3	86,0
Zafarobod	1,6	2,6	115,1
Mirzacho‘l	1,4	2,3	109,8
Paxtakor	3,8	6,3	101,6
Forish	3,3	5,5	103,9
Yangiobod	1,5	2,5	97,5

Eng yuqori hajmga ega hududlar



Jizzax shahri
Zomin
Sharof Rashidov

2023 yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida ulgurji tovar aylanmasi

2023 yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo aylanmasi 407,6 mlrd. so‘mni yoki 2022 yilning shu davriga nisbatan 100,3 foizni tashkil etdi.

Yirik korxonalarning ulgurji savdo aylanmasi 66,9 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 93,8 foizni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdo aylanmasi 101,7 foizni tashkil etib, 340,8 mlrd. so‘mga yetdi hamda umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi 83,6 foizni tashkil qildi.

	Hajmi, (mlrd. so‘m)	*Jamiga nisbatan, foizda*	*2022 yil yanvar-martiga nisbatan foizda*
Jizzax viloyati	**407,6**	**100,0**	**100,3**
shahar:			
Jizzax	172,6	42,4	98,0
tumanlar:			
Arnasoy	0,5	0,1	16,7
Baxmal	51,8	12,7	144,6
G‘allaorol	11,5	2,8	190,7
Sharof Rashidov	51,6	12,6	135,1
Do‘stlik	24,0	5,9	70,6
Zomin	52,1	12,8	68,1
Zarbdor	5,3	1,3	42,8
Zafarobod	4,6	1,1	43,0
Mirzacho‘l	26,5	6,5	5,0 m.
Paxtakor	5,2	1,3	178,6
Forish	0,9	0,2	89,2
Yangiobod	1,0	0,3	24,5

Hududlar kesimida ulgurji tovar aylanmasi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish surati yuqori bo‘lgan Mirzacho‘l (5,0 m.), G‘allaorol (190,7 %) va Paxtakor (178,6 %) tumanlariga to‘g‘i keladi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida hududlar ulushi, *% da*



Ulgurji savdo aylanmasi hajmi o‘tgan yilga nisbatan 0,3 foizni tashkil etdi, kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 101,7 foizni, hajmi esa 340,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Xususan, ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo‘lgan hudud Jizzax shahri (42,4 %) hisoblanadi. Shuningdek, Zomin (12,8 %) va Baxmal (12,7 %) tumanlari nisbatan yuqori ulushga, Arnasoy (0,1 %), Forish (0,2 %), Yangiobod (0,3 %) hamda Zafarabod (1,1 %) tumanlari esa eng past ulushga ega.

Shundan yuqori hajmlarga ega bo‘lgan Jizzax shahrida 172,6 mlrd. so‘mni, qolganlari Zomin 52,1 mlrd. so‘mni, Baxmal 51,8 mlrd. so‘mni, Sharof Rashidov 51,6 mlrd. so‘mni hamda Mirzacho‘l 26,5 mlrd. so‘mni tumanlarida tashkil qilgan.